

UDK: 911.3

**TOSHKENT IQTISODIY RAYONIDAGI ERKIN IQTISODIY ZONALAR JOYLASHUVINING
IQTISODIY-GEOGRAFIK XUSUSIYATLARI****Amanov Allabergan Kutlimuratovich** – katta o'qituvchiamanov1975@gmail.com*Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti***ЭКОНОМИЧЕСКИЕ И ГЕОГРАФИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ РАСПОЛОЖЕНИЯ
СВОБОДНЫХ ЭКОНОМИЧЕСКИХ ЗОН В ТАШКЕНТСКОМ ЭКОНОМИЧЕСКОМ РЕГИОНЕ****Аманов Аллаберган Кутлимуратович** – старший преподаватель*Ургенский государственный университет имени Абу Райхона Беруни***ECONOMIC AND GEOGRAPHICAL FEATURES OF THE LOCATION
OF FREE ECONOMIC ZONES IN THE TASHKENT ECONOMIC REGION****Amanov Allabergan Kutlimuratovich** – Senior teacher*Urgench State University named after Abu Rayhon Beruni*

Tayanch so'zlar: baliqchilik erkin iqtisodiy zonasi, diversifikatsiya, eksport, erkin iqtisodiy zona, farmatsevtika erkin iqtisodiy zonasi, import, iqtisodiy rayon, logistika markazi, modernizatsiya, sanoat rayoni, sport erkin iqtisodiy zonasi, texnopark, turizm erkin iqtisodiy zonasi, turizm zonasi.

Rezyume. Maqolada Toshkent iqtisodiy rayonidagi erkin iqtisodiy zona(keyingi o'rinlarda EIZ)lari shakllanishi va ularning mintaq bo'ylab joylashuvining iqtisodiy-geografik xususiyatlari haqida fikr yuritiladi. Mintaqadagi EIZ joylashuvidagi iqtisodiy-geografik xususiyatlarni ochib berishda iqtisodiy geografik tahlil, kartografik, statistik ma'lumotlar bilan ishlash kabi bir qator tadqiqot usullaridan foydalanildi. Ilmiy tahlillar natijasida mavzuga doir taklif tavsiyalar berib o'tildi.

Ключевые слова: свободная экономическая зона рыболовства, диверсификация, экспорт, свободная экономическая зона, свободная экономическая зона фармацевтики, импорт, экономический район, логистический центр, модернизация, промышленный район, свободная экономическая зона спорта, технопарк, свободная экономическая зона туризма, туристическая зона.

Резюме. В статье рассматривается формирование свободных экономических зон (далее – СЭЗ) в Ташкентском экономическом регионе и экономико-географические особенности их размещения в регионе. Для выявления экономико-географических особенностей размещения СЭЗ в регионе использован ряд методов исследования, включая экономико-географический анализ, картографические и статистические данные. По результатам научного анализа были сформулированы предложения и рекомендации по данной теме.

Key words: fishery free economic zone, diversification, export, free economic zone, pharmaceutical free economic zone, import, economic region, logistics center, modernization, industrial area, sports free economic zone, technology park, tourism free economic zone, tourism zone.

Summary. The article discusses the formation of free economic zones (hereinafter referred to as FEZs) in the Tashkent economic region and the economic and geographical features of their location throughout the region. A number of research methods were used to reveal the economic and geographical features of the location of FEZs in the region, including economic geographical analysis, cartographic, and statistical data. As a result of scientific analysis, proposals and recommendations on the topic were made.

Kirish. Mamlakatimizda iqtisodiy rayonlashtirish iqtisodiyotini samarali boshqarish, ma'muriy birliklar o'rtasidagi iqtisodiy aloqalarni rivojlantirish, aniqrog'i mintaqalarning iqtisodiy salohiyatidan samarali foydalanish, ishlab chiqarish tarmoqlarini oqilona joylashtirish hamda hududlarni kompleks rivojlantirish maqsadida amalga oshiriladi.

Iqtisodiy rayon – bu mamlakat hududining ma'muriy chegaralari ustma-ust tushuvchi bevosita bir biri bilan chegaradosh 2 yoki undan ortiq (ba'zi mamlakatlarda bitta) ma'muriy birliklarning iqtisodiyot sohalari bir xil ixtisoslashuvga ega qismidir.

Har bir iqtisodiy rayon o'zining tabiiy boyliklari, ixtisoslashgan xo'jalik tarmoqlari va iqtisodiy rivojlanish xususiyatlari bilan boshqa rayonlardan farq qiladi. Ilmiy adabiyotlarda mamlakatimiz hududi 6 ta (**Toshkent, Farg'ona, Mirzacho'l, Zarafshon, Janubiy va Quyi Amudaryo**) iqtisodiy rayonga ajratiladi.

Mamlakatimizning iqtisodiy rivojlanish darajasi bo'yicha yetakchi hisoblangan **Toshkent iqtisodiy rayoni** tarkibiga ma'muriy jihatdan Toshkent viloyati va poytaxt Toshkent shahri kiradi.

O'zbekistonning iqtisodiy rayonlari sanoat salohiyati va ixtisoslashuvi bilan o'zaro farq qiladi. Jumladan, Toshkent iqtisodiy rayoni sanoat salohiyati jihatidan respublikada alohida ajralib turadi. Yoqilg'i sanoatidan tashqari, sanoatning barcha tarmoqlar shu rayon uchun ixtisoslashgan tarmoqlar qatoriga kiradi [4:156].

Iqtisodiy rayonning qulay transport infratuzilmasi, xalqaro avtomobil va temir yo'llari, hamda zamonaviy logistika markazlari mavjudligibu yerda bir qator EIZlari tashkil qilishga imkoniyat yaratgan.

Xo'sh, EIZning o'zi nima – investitsiyalarni jalb etish va ishlab chiqarishni rivojlantirish maqsadida tashkil etilgan maxsus hudud bo'lib, unda faoliyat yurutuvchi rezidentlarga ma'lum tartiblar asosida soliq va bojxona

imtiyozlari beriladi. Bunday zonalarida import o'rnini bosuvchi, eksportbop mahsulotlar ishlab chiqarishga e'tobor qaratiladi, asosiysi yangi ish o'rinlari yaratiladi va mintaqalar iqtisodiyotini rivojlanadi.

Erkin iqtisodiy zonalar (EIZ) – mamlakat hududining maxsus ajratilgan qismi bo'lib, unda investitsiyalarni jalb etish, eksport hajmini oshirish, zamonaviy texnologiyalarni joriy qilish hamda ishlab chiqarishni rivojlantirish maqsadida alohida iqtisodiy va huquqiy tartiblar amal qiladi.

Erkin iqtisodiy hududlar ularni tashkil qiluvchilar tomonidan ochiq iqtisodiyot tamoyillarini amalga oshirishdagi muhim bosqich sifatida ko'riladi. Ularning faoliyat ko'rsatishi tashqi iqtisodiy faoliyatni faollashtirish va erkinlashtirish bilan bog'liq [2:200].

Mamlakat iqtisodiyotining barqaror rivojlanishini ta'minlashda hududlarning iqtisodiy salohiyatidan samarali foydalanish muhim, bunda EIZlar investitsiyalarni jalb qilish, eksport salohiyatini oshirish, yangi ish o'rinlarini yaratish hamda zamonaviy sanoat tarmoqlarini rivojlantirishning samarali vositasi hisoblanadi. Shu sababli O'zbekistonda, xususan Toshkent iqtisodiy rayonida so'nggi yillarda EIZni tashkil etish va ularning faoliyatini takomillashtirish bo'yicha keng ko'lamli islohotlar amalga oshirildi.

Adabiyotlar tahlili va metodlar. Bugungi kunda jahon iqtisodiyotida EIZlar hududiy rivojlanishning eng samarali mexanizmlaridan biri sifatida e'tirof etiladi. Ular nafaqat ishlab chiqarishni rivojlantirish, balki yangi texnologiyalarni joriy etish, innovatsion faoliyatni rag'batlantirish, logistika tizimini takomillashtirish hamda xalqaro iqtisodiy hamkorlikni kengaytirishga xizmat qiladi.

Rossiyalik iqtisodchilardan A.Kuznetsov hamda S.A.Ribakov va N.A.Orlovlar ning keltirishicha, EIZ – bu xorijiy tovarlar hech qanday bojxona to'lovlarisiz saqlanishi, sotilishi yoki xarid qilinishi mumkin bo'lgan hudud. O'zbekistonlik A.V.Vaxabov, Sh.X.Xajibakiev, N.G.Muminov va Rossiyalik T.P.Danko, Z.M.Okrut, N.V.Igoshin kabi mualliflar bir ovozdan, – “Erkin iqtisodiy zona – bu mahalliy hamda xorijiy tadbirkorlar faoliyat yuritishi uchun maxsus imtiyozli iqtisodiyot amal qiladigan chegaralangan hudud” – degan xulosaga kelishgan [3:331].

EIZlar bo'yicha xorijiy olimlar, jumladan Paul Krugman, Michael Porter va Peter Hall kabi o'nlab olimlar o'z ilmiy tadqiqotlarida ularning investitsiyalarni jalb etish, eksport salohiyatini oshirish, innovatsion ishlab chiqarishni rivojlantirish hamda hududlarning raqobatbardoshligini kuchaytirishdagi o'rni yoritilgan.

Rus olimlaridan O.Kuznetsova, V.Maslixina, T.Oruch hamda S.Sosnovskikh tomonidan EIZlarning investitsion jozibadorligi, hududiy rivojlanishi va ularning samaradorligi nuqtai nazaridan ilmiy tadqiqotlar olib borilgan.

EIZlarning samarali faoliyat yuritishi, ularning faoliyati tahlili, ishlab chiqarish hajmining prognoz darajalari, EIZ yaratilish maqsadlari, turlari, huquqiy asoslari haqida mamlakatimizning bir qator iqtisodchi olimlari N.To'xliyev, A.V.Vaxabov, A.U.Akramov, S.S.Nazirova, D.Y.Xujamkulov, EIZlar samaradorligini mutlaq va nisbiy miqdor ko'rsatkichlari bo'yicha baholash tizimi Sh.A.Qoraboyev, G.A.Inomova, S.I.Alabayev tadqiqotlarida o'z aksini topgan [5, 7].

Quyidagilar “Navoiy”, “Angren” va “Jizzax” erkin iqtisodiy zonalar (keyingi o'rinda – erkin iqtisodiy zonalar)

faoliyatini yanada rivojlantirishning asosiy yo'nalishlari etib belgilansin:

xorijiy investorlarga mamlakatimiz iqtisodiyotining real sektorlariga investitsiya kiritishi uchun yanada qulay sharoitlar yaratish maqsadida erkin iqtisodiy zonalar uchun yagona huquqiy rejimni belgilash, soliq va bojxona imtiyozlari, preferensiyalarni bixillashtirish;

mahalliy mineral-xom ashyo resurslarini chuqur qayta ishlaydigan va yuqori qo'shimcha qiymatga ega raqobatdosh mahsulotlar ishlab chiqaradigan yuqori texnologiyali va mahalliyashtiriladigan zamonaviy korxonalarni tashkil qilish uchun to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalarni, avvalambor, xorijiy investitsiyalarni faol jalb etish, erkin iqtisodiy zonalarining muayyan sohaga ixtisoslashuvini qo'llab-quvvatlash va ularda sanoat kooperatsiyasini rivojlantirish;

erkin iqtisodiy zonalarida “yagona darcha” tamoyili asosida barcha turdagi davlat xizmatlarini ko'rsatishga, jumladan, ruxsat berish tartib-taomillariga bosqichma-bosqich o'tish;

ishlab chiqarish, muhandislik-kommunikatsiya, yo'l-transport va ijtimoiy infratuzilmani jadal rivojlantirish, shuningdek, sifatli logistika xizmatlari ko'rsatish bo'yicha zamonaviy infratuzilmani shakllantirish;

oliy, o'rta maxsus kasb-hunar ta'limi muassasalarida erkin iqtisodiy zonalarining soha kadrlariga bo'lgan hozirgi va istiqboldagi ehtiyojlaridan kelib chiqib, ularning erkin iqtisodiy zonalarida joylashgan korxonalarida ishlab chiqarish amaliyotini o'tashini nazarda tutgan holda, yuqori malakali mutaxassislarni tayyorlashni tashkil etish [1].

Mamlakatimizda tashkil qilingan, yuqori texnologik EIZlar haqidagi mavjud ma'lumotlarni taqqoslash, tizimli tahlil va kartografik tadqiqot usullari yordamida chuqur o'rganildi [7:66].

Tadqiqot metodlari sifatida qiyosiy-geografik, statistik, tahliliy, kartografik va tizimli yondashuv usullaridan foydalanildi. Tadqiqot davomida ilmiy adabiyotlar, me'yoriy-huquqiy hujjatlar, statistik ma'lumotlar hamda mahalliy va xalqaro tashkilotlarning tahliliy hisobotlari o'rganildi

Mazkur tadqiqot usullari yordamida Toshkent iqtisodiy rayonida EIZlarni yanada rivojlantirish, investitsiya muhitini yaxshilash, ishlab chiqarish samaradorligini oshirish hamda hududning iqtisodiy raqobatbardoshligini kuchaytirish bo'yicha ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Muhokama. Iqtisodiy rayon shimolda va shimoli-sharqda Qozog'iston Respublikasi, sharqda Qirg'iziston Respublikasi, janubi-sharqda Namangan viloyati, janubda Tojikiston Respublikasi, g'arbda esa Sirdaryo viloyati bilan chegaradosh. Bunday qulay iqtisodiy-geografik o'rin hududning tashqi iqtisodiy aloqalari, transport-kommunikatsiya tizimi va xalqaro savdo munosabatlarining rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etadi.

O'zbekistonning EIZlar xarita-sxemasida ko'rinib turibdiki, mamlakatimizning har bir ma'muriy birligida yuqori texnologik EIZlar tashkil qilingan, shu jumladan Toshkent viloyatida ham Angren EIZsi tashkil qilingan (*1-rasmga qaramg*).

Hudud foydali qazilmalarga boy hisoblanadi, xususan Olmaliq-Angren havzasida mis, oltin va kumushning, shuningdek qo'ng'ir ko'mirning yirik konlari joylashgan bo'lib, ular mamlakat rangli metallurgiya hamda energetika tizimining muhim xomashyo bazasini tashkil etadi. Ushbu

tabiiy resurslar hududda sanoat korxonalarini joylashtirish va EIZlarni rivojlantirish uchun mustahkam asos yaratadi. Darhaqiqat Angren-Olmaliq sanoat rayonidagi yuqorida soʻz yuritilgan qulayliklar, xususan yuqori kuchlanishli elektr tizimi, boy xomashyo bazasi, shakllangan inrfatuzilma va yetarlicha malakali kadrlar, hamda arzon ishchi kuchi bu hudud jozibadorligining asosiy mezonini sanaladi.



1-rasm. Oʻzbekistonning yuqori texnologik EIZlari xarita-sxemasini. Xarita-sxema muallif tomonidan tayyorlangan.

Iqtisodiy rayon iqlimi keskin kontinental boʻlib, yozi issiq va quruq, qishi esa nisbatan yumshoq kechadi. Bunday tabiiy-iqlim sharoiti sanoat ishlab chiqarishi va qishloq xoʻjaligining deyarli barcha tarmoqlarini rivojlantirish imkonini beradi. Hududning tabiiy-geografik salohiyati erkin EIZlar faoliyatini samarali tashkil etishda muhim omillardan biri hisoblanadi. Ushbu imkoniyatlardan foydalanib iqtisodiy rayonda quyidagi EIZlar va texnoparklar tashkil qilingan.

Iqtisodiy rayonning EIZlar va texnoparklar tashkil qilishdagi asosiy ustunliklari quyidagilardan iborat:

- rivojlangan sanoat tarmoqlari;
- yirik isteʼmol bozori mavjudligi;
- malakali ishchi kuchining koʻpligi;
- ilmiy tadqiqot institutlari va oliy taʼlim muassasalarining jamlanganligi;
- logistika markazlarining rivojlanganligi.

Ushbu ustunliklar iqtisodiy rayonning boshqa mintaqalarga nisbatan kuchli tomonini koʻrsatadi.

1-jadval. Toshkent iqtisodiy rayonida tashkil qilingan EIZlar va texnoparklar


EIZ nomi	Tashkil etilgan yili	Manzili
EIZlar		
Angren EIZ	2017-yil 3-may	Jizzax viloyati Zomin tumani Mustaqillik koʻchasi 32 uy
“Boʻstonliq farm”	2017-yil 3-may	Toshkent viloyati Boʻstonliq tumani “Kichiksoy” MFY Sharq koʻchasi
“Parkent farm”	2017-yil 3-may	Toshkent viloyati Parkent tumani “Markaziy” MFY Muruvvat koʻchasi
“Chorvoq” erkin turistik zonasi	2017-yil 5-dekabr	Toshkent viloyati Boʻstonliq tumani

Toshkent “Sport” EIZ	2018-yil 6-mart	Toshkent shahri Shayxontohur tumani
Quyi Chirchiq “Baliq ishlab chiqaruvchi” EIZ	2018-yil 7-aprel	Toshkent viloyati, Quyi Chirchiq tumani, Baliqchi mahallasi
Texnoparklar*		
Yashnobod innovatsiya texnoparki	2017-yil 5-iyun	Toshkent shahri, Yashnobod tumani
Olmazor texnoparki	2020-yil 12-avgust	Toshkent shahri, Olmazor tumani, Talabalar shaharchasi
Chirchiq texnoparki	2022-yil 3-fevral	Toshkent viloyati Chirchiq shahri
“Ohangaron Tech industrial” texnoparki	2023-yil 14-avgust	Toshkent viloyati Ohangaron shahri
Oʻzbekiston-Boshqirdiston texnoparki	2026-yil 24-fevral	Toshkent viloyati Bekobod shahri

Izoh: *Texnoparklar EIZlarga tenglashtiriladi. Jadval internet saytlaridan olingan maʼlumotlar asosida muallif tomonidan tuzildi.

Jadvaldan shuni koʻrish mumkin-ki, keyingi yillarda EIZlar tenglashtirilgan texnoparklar koʻp tashkil qilinayotgani eʼtiborli tomoni hisoblanadi, negaki texnoparklar kichik hududlarda mehnat resurslari, ayniqsa malakali kadrlar yetarlicha boʻlgan joylarda bunyod qilinadi.

Aynan shu omillar hududda EIZlarni tashkil etish va ularning samarali faoliyat yuritishida asosiy iqtisodiy-geografik omillar sifatida namoyon boʻlmoqda, hamda turli sohalarga xos EIZlar bunyod qilinmoqda (1-rasmga qarang).



1-rasm. Toshkent iqtisodiy rayonida tashkil qilingan EIZlarining turlari. Muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

Soʻnggi yillarda hududdagi EIZlar va texnoparklardagi xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar soni ortib bormoqda. Zamonaviy texnologiyalar asosida ishlab chiqarishning yoʻlga qoʻyilishi mahsulot sifati va raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qilmoqda. EIZlarda amalga oshirilayotgan investitsiya loyihalari yangi ish oʻrinlari yaratish, eksport hajmini kengaytirish va hududning iqtisodiy salohiyatini yanada mustahkamlashga yordam bermoqda. Xorijiy va mahalliy investitsiyalarni koʻplab jalb qilinishi EIZlarda ishlab chiqarishni modernizatsiyalash va diverfikatsiyalash imkonini bermoqda.

